

**ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.05/30.10.2020.Qx.126.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR
INSTITUTI**

JANIBEKOV DILYORBEC ABDUMANNONOVICH

**ANDIJON VILOYATI SHAROITIDA G‘O‘ZADAN YUQORI VA SIFATLI
PAXTA HOSILINI TA‘MINLOVCHI RESURSTEJAMKOR
AGROTEXNOLOGIYALARNING ILMIY ASOSLARI**

06.01.01 - Umumiy dehqonchilik. Paxtachilik

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

ANDIJON–2023

Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

по сельскохозяйственным наукам

Contents of dissertation’s abstract of Doctor of Philosophy (PhD)

on agricultural sciences

Janibekov Dilyorbek Abdumannobovich

Andijon viloyati sharoitida g‘o‘zadan yuqori va sifatli paxta hosilini ta’minlovchi resurstejamkor agrotexnologiyalarning ilmiy asoslari.....3

Жанибеков Дилёрбек Абдуманнобович

Научные основы ресурсосберегающих агротехнологий, обеспечивающих получение качественного урожая хлопка-сырца в условиях Андижанской области.....21

Janibekov Dilyorbek Abdumannobovich

Scientific foundations of resource-saving agricultural technologies ensure a quality harvest of raw cotton in the conditions of the Andijan region41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....45

**ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.05/30.10.2020.Qx.126.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR
INSTITUTI**

JANIBEKOV DILYORBЕК ABDUMANNΟBOVICH

**ANDIJON VILOYATI SHAROITIDA G‘O‘ZADAN YUQORI VA SIFATLI
PAXTA HOSILINI TA‘MINLOVCHI RESURSTEJAMKOR
AGROTEXNOLOGIYALARNING ILMIY ASOSLARI**

06.01.01 - Umumiy dehqonchilik. Paxtachilik

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2018.4.PhD/Qx329 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalari institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasida (www.andqxai.uz;) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xoshimov Ibroxim Nabiyeovich

qishloq xo'jaligi fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Rasmiy opponentlar:

Ibragimov Odiljon Olimjonovich

qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

O'razmatov Nasibjon Nazirovich

qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat agrar universiteti

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya himoyasi Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti huzuridagi PhD.05/30.10.2020.Qx.126.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «_____» _____, soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 170600 Andijon tumani, Kuygan-yor shaharchasi, Oliygo' ko'chasi 1-uy. Tel.: (+99874) 373-10-54; faks: (+99874) 373-13-63; e-mail: agai_info@edu.uz;; Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti Ma'muriy binosi, 1-qavat, anjumanlar zali).

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya bilan Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ _____-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 170600, Andijon tumani, Kuygan-yor shaharchasi, Oliygo' ko'chasi 1-uy, Axborot-resurs markazi binosi.Tel.: (+99874) 373-10-54).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «_____» _____ kuni tarqatildi.

(2023-yil «_____» _____ dagi _____ -raqamli reestr bayonnomasi).

A.Isashov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, q.x.f.d., professor.

A.N.Jo'rayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, q.x.f.f.d.(PhD), dotsent.

K.S.Komilov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, q.x.f.n. dotsent.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda paxta to'qimachilik sanoatining asosiy hom-ashyosi hisoblanib, paxta tolasiga bo'lgan extiyoj yildan yilga ortib bormoqda. "Dunyoning 92 dan ortiq mamlakatlarida yiliga 26,2 mln tonna paxta tolasini yetishtirilib, buning 6,2 mln tonnasi Hindiston, 6,1 mln tonnasi Xitoy, 3,6 mln tonnasi AQSh, 2,4 mln tonnasi Pokiston, 1,4 mln tonnasi Braziliya va 1,1 mln tonnasi O'zbekiston"¹ kabi davlatlarning hissasiga to'g'ri keladi. Ushbu davlatlar yer yuzida yetishtirilayotgan paxta tolasini 79,7 foizini ishlab chiqarishi bilan birga eng ko'p tola eksport qiladigan davlatlar hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan xulosa qilish mumkinki, yengil sanoatni yildan yilga paxta tolasiga bo'lgan talabini ortib borayotganligini hisobga olgan holda yangi hosildor navlarni yaratish va ularni morfologik hamda biologik xususiyatlarini inobatga olgan holda resurstejamkor agrotexnologiyalarni ishlab chiqish qishloq xo'jaligi hodimlari oldida turgan dolzarb muammolardan biridir.

Dunyoning paxta yetishtiruvchi rivojlangan mamlakatlarida g'oz o'simligini parvarishlashda ilg'or fan yutuqlaridan keng foydalangan holda tola sifati yuqori bo'lgan paxta hosili yetishtirishga katta e'tibor qaratib kelmoqdalar. Bu borada chigitni ekish muddatlarini to'g'ri belgilash va ekish tizimlarini tanlashda g'oz navlarini biologik va morfologik xususiyatlarini, yetishtirilayotgan mintaqaning tuproq-iqlim sharoitlarini hisobga olish muhimdir. G'oz o'simligidan yuqori paxta hosili va sifatli tola yetishtirishda har bir navni biologik va morfologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda mintaqalar kesimida maqbul ekish muddatlari, ekish tizimlari va ekish usullarini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borish shu kundagi muhim va dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Hozirgi kunda respublikamizda g'ozani yangi yaratilgan va ekib kelinayotgan navlarni maqbul ekish tizimlarini o'rganish hamda paxtachilikda erishilayotgan fan yutuqlaridan keng ko'lamli foydalanish natijasida yuqori hosildorlikka erishib kelinmoqda. Lekin, jahon tajribalariga tayangan holda yerlardan intensiv ravishda foydalanish maqsadida chigitlarni turli usullarda va tizimlarda ekib, ko'chat qalinligini gektariga 150 ming tupdan oshirish va shunga bog'liq holda yetishtirish agrotexnologiyasini ishlab chiqishga yetarlicha e'tibor qaratilmagan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-fevraldagi PQ-5009 sonli "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni 2021 yilda amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi, 2022-yil 7-iyuldagi PQ-308 sonli "Paxta hosildorligini oshirish, paxta yetishtirishda ilm va innovatsiyalarni joriy qilishning qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlarida belgilangan vazifalarni ijrosini ta'minlashda xududlarga ekish uchun tavsiya etilgan navlarni mintaqaning tuproq-iqlim sharoitlaridan kelib chiqqan holda yetishtirish agrotexnikalarini takomillashtirib borish borasidagi ilmiy izlanishlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimizning 2021-yil 16-noyabrdagi PF 14-sonli "Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 6-martdagi PQ-4633-sonli "Paxtachilik sohasida bozor tamoyillarini keng joriy etish

¹ <https://www.atlasbig.com/ru/>

chora-tadbirlari to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 4-dekabrda 733-sonli "Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash" va 2021-yil 10-dekabrda 747-sonli "Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Chigitlarni turli usullarda va tizimlarda ekishni g'o'za o'simligini o'sishi, rivojlanishi va paxta hosildorligiga ta'sirini o'rganish va yetishtirish agrotexnologiyasini takomillashtirish borasida respublikamiz olimlaridan Q.Mirzajonov, Sh.Nurmatov, A.Avliyov, N.O'razmatov, O.Maxmudov, F.Xasanova, Sh.Salomov, S.Baxromov, A.Haydarovlar, xorijlik olimlaridan Lu Jin Chai, Muhammad Amjad Shahzad, Shakeel Ahmad Anjum, J.Akker, A.Canarache, Shawn Butler, Tyson Raper, Kater Hake, Tom Burch, Lawrence Harvey, Mushtaq Ali, Liaqat Ali, Muhammad Sattar va boshqa olimlar tomonidan ko'plab ilmiy-tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Ammo, Andijon viloyatining och tusli bo'z tuproqlari sharoitida chigitni turli usullarda va tizimlarda ekib, paxta hosili yetishtirishni tuproqning agrofizik, suv fizik va agrokimyoviy xususiyatlariga va hosil elementlarining shakllanishiga ta'sirini o'rganish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar yetarlicha olib borilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Andijon qishloq xo'jaligi institutining "G'o'zadan yuqori va sifatli paxta hosili yetishtirishda resurstejamkor agrotexnologiyalarni ishlab chiqish" (2018-2020 yy.) mavzusidagi tematik mavzular rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Andijon viloyatining och tusli bo'z tuproqlari sharoitida chigit ekish usullari va tizimlarini tuproqning agrofizik, suv-fizik va agrokimyoviy xususiyatlarini o'zgarishiga hamda g'o'za o'simligida hosil elementlarini shakllanishiga ta'sirini ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

❖ turli usul va tizimlarda chigit ekishni tuproqning agrofizik va agrokimyoviy xususiyatlariga ta'sirini aniqlash;

❖ chigit ekish usullari va tizimlarini tuproq haroratining o'zgarishiga va nihollarni unib chiqish dinamikasiga hamda ko'chat qalinligiga ta'sirini aniqlash;

❖ chigit ekish usullari va tizimlarini g'o'za o'simligining o'sib rivojlanishiga, hosil elementlarini shakllanishiga ta'sirini aniqlash;

❖ chigit ekish usullari va tizimlarini g'o'za o'simligining paxta hosildorligiga va tolaning texnologik sifat ko'rsatkichlariga ta'sirini aniqlash;

❖ g'o'zani turli ekish usullari va tizimlarda yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotning ob'ekti och tusli bo'z tuproq, g'o'zaning Andijon-37 navi, chigit ekish usullari, chigit ekish tizimlari.

Tadqiqotning predmeti chigit ekish usullari va tizimlarini tuproqning agrofizik, suv-fizik va agrokimyoviy xususiyatlari, g'o'za o'simligining ko'chat qalinliklari, o'sishi-rivojlanishi, paxta hosildorligi va tolaning texnologik sifat ko'rsatkichlari hisoblanadi.

Tadqiqot uslubi: Dala tajribalarini joylashtirish, hisoblashlar va kuzatishlar «Методы агрохимических, агрофизических и микробиологических исследований в поливных хлопковых районах», «Dala tajribalarini o'tkazish uslublari» (O'zPITI) uslubiy qo'llanmalari asosida olib borilgan. Olingan natijalarning statistik tahlili Microsoft Excel dasturi va Б.А.Доспехов uslubiy qo'llanmasi hamda iqtisodiy samaradorlik Н.А.Баранов usuli asosida bajarilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- ilk bor Andijon viloyatining och tusli bo'z tuproqlari sharoitida ochiq pushtaga, pushtaga plyonka to'shab hamda pushtalarga yoppasiga plyonka to'shab, qo'shqator qilib (76x38)x8,8-1; (76x38)x9,7-1; (76x38)x11,4-1 tizimlarda chigit ekish usullarini paxtachilikdagi samaradorligi o'rganilgan;

- chigitlar qo'shqator qilib, (76x38)x9,7-1 tizimda ekilganida tuproq hajm massasining ortishi pushtaga plyonka to'shab, chigitlar 90x10-1; 90x(60x30)x12-1; 90x(60x30)x15-1 tizimda ekilgan variantlarga nisbatan 0-30 sm qatlamda 0,007 g/sm³ dan 0,024 g/sm³ gacha, 30-50 sm qatlamda esa 0,007 g/sm³ dan 0,017 g/sm³ gacha kam bo'lib, suv o'tkazuvchanligi 8,3 m³/ga dan 24,2 m³/ga gacha yuqori bo'lganligi aniqlangan;

- pushtaga plyonka to'shab, chigitlarni qo'shqator qilib, (76x38)x8,8-1; (76x38)x9,7-1; (76x38)x11,4-1 tizimlarda ekish chigitlarni ushbu tizimda ochiq maydonga ekilganga nisbatan amal davri oxirida ko'saklar soni 2,3 donadan 2,5 donagacha, ochilganlari 3,3 donadan 3,5 donagacha yuqori bo'lishi isbotlangan;

- chigitlarni pushtaga plyonka to'shab, qo'shqator qilib (76x38)x9,7-1 tizimda ekish hosil elementlarining shakllanishiga ijobiy ta'sir etib, paxta hosildorligi chigitlar ochiq maydonga 90x10-1 tizimda ekilgan variantga nisbatan 13,2 s/ga, rentabellik 19,4 foizga, pushtaga plyonka to'shab chigitlar yakka qator qilib 90x10-1 tizimda ekilgan variantga nisbatan 6,6 s/ga, rentabellik 11,9 foizga, pushtalarga yoppasiga plyonka to'shab ekilgan tizimlarga nisbatan 5,2 s/ga, rentabellik darajasi 6,7 foizgacha yuqori bo'lganligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

chigitlar ochiq maydonga qo'shqator qilib (76x38)x9,7-1 tizimda ekib parvarish qilinganida, amal davri oxiriga borib tuproq hajm massasining ortishi, chigitlarni ochiq maydonga 90x10-1; 90x(60x30)x12-1; 90x(60x30)x15-1 tizimlarda ekib parvarishlangan variantga nisbatan 0-30 sm qatlamda 0,011 g/sm³ dan 0,016 g/sm³ gacha, 30-50 sm qatlamda esa 0,008 g/sm³ dan 0,014 g/sm³ gacha kam bo'lib, g'ovakligi 0-30 sm qatlamda 0,407 foizdan 0,593 foizgacha, 30-50 sm qatlamda 0,284 foizdan 0,531 foizgacha, tuproqning suv o'tkazuvchanligi 12,4 m³/ga dan 19,4 m³/ga gacha yuqori, pushtaga plyonka to'shab, chigitlar qo'shqator qilib, (76x38)x9,7-1 tizimda ekilgani variantda tuproq hajm massasining ortishi pushtaga plyonka to'shab, chigitlar 90x10-1; 90x(60x30)x12-1; 90x(60x30)x15-1 tizimda

ekilgan variantlarga nisbatan 0-30 sm qatlamda $0,007 \text{ g/sm}^3$ dan $0,024 \text{ g/sm}^3$ gacha, 30-50 sm qatlamda esa $0,007 \text{ g/sm}^3$ dan $0,017 \text{ g/sm}^3$ gacha kam bo'lib, g'ovakligi 0-30 sm qatlamda 0,259 foizdan 0,877 foizgacha, 30-50 sm qatlamda 0,259 foizdan 0,630 foizgacha, tuproqning suv o'tkazuvchanligi $8,3 \text{ m}^3/\text{ga}$ dan $24,2 \text{ m}^3/\text{ga}$ gacha yuqori bo'lganligi aniqlandi;

chigitlar pushtaga plyonka to'shab ekilgan tizimlarda ko'chatlarning qalinligi tahlil qilinganida, chigitlar ochiq maydonga ekilgan variantlarga nisbatan 90×10 -1 tizimda unib chiqqan ko'chatlar 1,7 ming tup/ga, amal davri oxirida 2,2 ming tup/ga, $90 \times (60 \times 30) \times 12$ -1 tizimda unib chiqqan ko'chatlar 2,5-3,9 ming tup/ga, amal davri oxirida 3,5-4,7 ming tup/ga, $90 \times (60 \times 30) \times 15$ -1 tizimda unib chiqqan ko'chatlar 2,2-3,3 ming tup/ga, amal davri oxirida 3,0-3,4 ming tup/ga, $(76 \times 38) \times 8,8$ -1 tizimda unib chiqqan ko'chatlar 3,4-4,4 ming tup/ga, amal davri oxirida 4,7-5,4 ming tup/ga, $(76 \times 38) \times 9,7$ -1 tizimda unib chiqqan ko'chatlar soni 3,2-4,2 ming tup/ga, amal davri oxirida 4,4-4,8 ming tup/ga, $(76 \times 38) \times 11,4$ -1 tizimda unib chiqqan ko'chatlar soni 2,4-2,9 ming tup/ga, amal davri oxirida 3,7-3,5 ming tup/ga yuqori bo'lganligi aniqlandi.

pushtaga plyonka to'shab, chigitlar qo'shqator qilib, $(76 \times 38) \times 9,7$ -1 tizimda ekilganda, 1000 dona chigit vazni hamda tolaning texnologik ko'rsatkichlari ochiq maydonga $(76 \times 38) \times 8,8$ -1; $(76 \times 38) \times 9,7$ -1; $(76 \times 38) \times 11,4$ -1 tizimlarda ekilgan variantlarga nisbatan 1000 dona chigit vazni 1,3-1,7-1,0 gr gacha, tola chiqishi 0,4-0,3-0,1 foizgacha, tola uzunligi o'rtacha 0,6 mm gacha, tolaning nisbiy uzulish kuchi 0,7-0,6-0,3 gk/teks gacha yuqori bo'lganligi qayd etildi.

pushtaga plyonka to'shab, chigitlarni $(76 \times 38) \times 9,7$ -1 tizimda qo'shqator qilib ekish, chigitlarni ochiq maydonga va plyonka ostiga 90×10 -1 tizimda ekilgan maydonga nisbatan paxta hosildorligi 6,6 ts/ga dan 13,2 ts/ga gacha, rentabellik darajasi 11,9% dan 19,4% gacha, $90 \times (60 \times 30) \times 12$ -1 tizimda ekilgan maydonga nisbatan paxta hosildorligi 1,7 ts/ga dan 10,6 ts/ga gacha, rentabellik darajasi 5,0% dan 17,5% gacha, $90 \times (60 \times 30) \times 15$ -1 tizimda ekilgan maydonga nisbatan paxta hosildorligi 3,0 s/ga dan 12,4 s/ga gacha, rentabellik darajasi 4,9% dan 18,7% gacha, $(76 \times 38) \times 8,8$ -1 tizimda ekilgan maydonlarga nisbatan paxta hosildorligi 0,8 ts/ga dan 9,9 ts/ga gacha, rentabellik darajasi 1,8% dan 16,4% gacha, $(76 \times 38) \times 11,4$ -1 tizimda ekilgan maydonlarga nisbatan paxta hosildorligi 2,3 ts/ga dan 11,8 ts/ga gacha, rentabellik darajasi 1,3% dan 17,2% gacha, ochiq maydonga va pushtalarga yoppasiga plyonka to'shab $(76 \times 38) \times 9,7$ -1 tizimda ekilgan maydonlarga nisbatan paxta hosildorligi 3,6 ts/ga dan 9,3 ts/ga gacha, rentabellik ko'rsatkichi 3,6% dan 14,5% gacha yuqori bo'lganligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dala va ishlab chiqarish tajribalari uslubiy jihatdan to'g'ri o'tkazilganligi, dissertatsiya ishida qo'llanilgan uslublarning tadqiqotlarni bajarishga mosligi, olingan natijalarning respublika va xorijiy olimlar tajribalari bilan taqqoslanganligi, ma'lumotlarning ishonchliligi, tadqiqotlar yo'nalishi Davlat buyurtmalari bo'yicha amaliy yo'nalishdagi ilmiy loyihalarning tarkibiy qismi ekanligi hamda tadqiqot natijalarining Respublika va xalqaro miqyosidagi ilmiy anjumanlarda muhokama qilinganligi, xorijiy va mahalliy ilmiy nashrlarida chop etilib, ishlab chiqarishga tavsiyalar berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, Andijon viloyatining och tusli bo'z tuproqlari sharoitida turli chigit ekish tizimlarini qo'llashning tuproqni agrofizik, suv-fizik xossalariga hamda agrokimyoviy xususiyatlariga, amal davri oxirida xaqiqiy ko'chat qalinligiga, bo'yi, hosil shoxlari soni va hosil elementlarining shakllanishiga, ko'saklar soni va bir ko'sakdagi paxta vazniga, paxta hosildorligiga, tolaning texnologik sifat ko'rsatkichlariga hamda iqtisodiy samaradorligiga ta'siri ilmiy asoslangan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, pushtaga plyonka to'shab, chigitlarni (76x38)x9,7-1 tizimda qo'shqator qilib ekish g'o'zaning "Andijon-37" navidan chigitlarni ochiq maydonga turli tizimlarga ekilganga nisbatan paxta hosildorligi 9,3 ts/ga dan 13,2 ts/ga gacha, rentabellik darajasi 14,5% dan 19,4% gacha, pushtaga plyonka to'shab, chigitlar turli tizimlarda ekilgan maydonga nisbatan paxta hosildorligi 0,8 ts/ga dan 6,6 ts/ga gacha, rentabellik darajasi 1,8% dan 11,9% gacha, pushtaga yoppasiga plyonka to'shab, chigitlar turli tizimlarda ekilgan maydonga nisbatan paxta hosildorligi 3,6 ts/ga dan 5,2 ts/ga gacha, rentabellik ko'rsatkichi 3,6% dan 6,4% gacha yuqori bo'lganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Andijon viloyati sharoitida g'o'zadan yuqori va sifatli paxta hosilini ta'minlovchi resurstejamkor agrotexnologiyalarni ilmiy asoslari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida:

paxtachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari va klasterlar uchun «Paxta yetishtirishda resurstejamkor agrotexnologiyalarni qo'llash» nomli tavsiyanoma ishlab chiqilgan va tasdiqlangan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023 yil 3 fevraldagi 07/21-21-05/395-son ma'lumotnomasi). Natijada paxtachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari va klasterlarda g'o'zadan yuqori va sifatli paxta hosili yetishtirishda qo'llanma sifatida xizmat qilmoqda;

pushtaga plyonka to'shab, chigitlarni (76x38)x9,7-1 tizimda qo'shqator qilib ekish texnologiyasi Andijon viloyatining Izboskan tumanida faoliyat yuritayotgan "Sohib omad barakasi" MChJ klasterida 76,4 gektar maydonga, Marhamat tumani fermer xo'jaliklarida 65,3 gektar maydonga, Oltinko'l tumani fermer xo'jaliklarida 50,9 gektar maydonga, viloyat bo'yicha jami 192,6 gektar maydonga joriy etilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023 yil 3 fevraldagi 07/21-21-05/395-son ma'lumotnomasi). Buning natijasida paxta hosildorligi 40,4 ts/ga tashkil qilib, an'anaviy ochiq usulda 90x10-1 tizimda ekilgan maydonlarga nisbatan 10,5 ts/ga, plyonka ostiga 90x10-1 tizimda ekilgan maydonlarga nisbatan 4,6 ts/ga qo'shimcha paxta hosili olingan;

pushtaga plyonka to'shab, chigitlarni (76x38)x9,7-1 tizimda qo'shqator qilib ekib, hosil yetishtirilganida rentabellik darajasi 34,6% ni tashkil qilib, an'anaviy ochiq usulda 90x10-1 tizimda ekilgan maydonlarga nisbatan 17,1% gacha, plyonka ostiga 90x10-1 tizimda ekilgan maydonlarga nisbatan 11,5% gacha yuqori bo'lganligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari har yili Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti (Toshkent davlat agrar universiteti Andijon filiali) aprobatsiya komissiyalari tomonidan "yaxshi" va "a'lo" baholarga baholangan. Tadqiqotdan olingan natijalar 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruzalar qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 8 ta ilmiy maqola chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, jumladan, 2 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, oltita bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan bo'lib, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'ekti va predmetlari tavsiflangan. Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, tadqiqot usullari va uslublari, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, olingan amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, tadqiqot natijalarini aprobatsiya ko'rigida ijobiy baholanganligi, tadqiqot natijalari yuzasidan nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiya hajmi va tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar yoritilgan.

Dissertatsiyaning «**Chigit ekish usullari va tizimlarini g'o'za o'simligining o'sishi, rivojlanishi va paxta hosildorligiga ta'siri bo'yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar sharxi**» deb nomlangan birinchi bobida dissertatsiya mavzusi yuzasidan xorijiy va mahalliy sharoitlarda olib borilgan ilmiy-tadqiqot natijalari sharxlangan.

Shuningdek, chigitlarni turli ekish usullari va tizimlarini tuproqning agrofizik, suv fizik xossalariga va agrokimyoviy xususiyatlariga, g'o'za o'simligini o'sishi, rivojlanishi, hosil elementlarining shakllanishi hamda paxta hosiliga va sifat ko'rsatkichlariga ta'siri yuzasidan ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqot olib borilgan xududning geografik joylashuvi, tuproq va iqlim sharoiti, tadqiqot olib borish usuli va uslublari**» deb nomlangan ikkinchi bobida, tadqiqot o'tkazilgan xududning geografik o'rni, tuproq-iqlim sharoitlari va tadqiqot o'tkazish uslublari, tajriba maydoni tuprog'ining dastlabki agrofizik va suv fizik xossalari hamda agrokimyoviy xususiyatlari, tuproq va o'simliklar ustida olib boriladigan tahlillar va fenologik kuzatuvlar uslublari hamda qo'llanilgan agroteknik tadbirlar bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotlar 2018-2020 yillari Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agroteknologiyalari ilmiy tadqiqot institutining Andijon ilmiy-tajriba stansiyasi tajriba dalasida olib borilgan bo'lib, tuprog'ining ozuqa elementlari bilan ta'minlanishi, nitrat, fosfor va kaliy bilan kam darajada ta'minlanganligi aniqlangan.

Tadqiqotlar dala va laboratoriya sharoitida olib borilgan bo'lib, bunda dala tajribalarini joylashtirish, hisoblash va fenologik kuzatuvlar olib borishda "Dala tajribalarini o'tkazish uslublari" (O'zPITI, 2007), tuproqning 0-30 va 30-50 sm. qatlamlaridan agrofizik (hajm massa, g'ovaklik, suv o'tkazuvchanlik, tuproqning donadorligi) hamda agrokimyoviy xossalarini aniqlashda «Методы агрохимических, агрофизических и микробиологических исследований в

поливных хлопковых раёнах» uslubiy qo'llanmalaridan foydalanilgan holda olib borilgan. Tajribalardan olingan ma'lumotlarga statistik ishlov berish Б.Доспехов (М.: 1985) ning uslubiy qo'llanmasi bo'yicha dispersion tahlil asosida hisoblab chiqarilganligi bayon qilingan.

Agrokimyoviy tahlillarni olib borishda tuproqning 0-30 va 30-50 sm. qatlamlaridan tuproq na'munalari olinib, gumus miqdori И.В.Тюрин, azot va fosforning umumiy miqdorlari А.Ф.Гритсенко, И.М.Малцева, nitratli azot miqdori Грандвалд-Ляжу, harakatchan fosfor miqdori Б.П.Мачигин, almashinuvchi kaliy miqdori П.В.Пратасов, tuproqning hajm massasi va g'ovakligi (Н.А.Качинский) silindr usulida, suv o'tkazuvchanligi katta diametrli silindrlar yordamida (С.Долгов), tuproqning agregatlari va fraksiyalari sita elaklari yordamida (И.Н.Савинов), tuproq haroratini o'lchash TL-7 asbobi yordamida aniqlangan.

Tajriba tizimi 17 ta variantdan iborat bo'lib, 3 qaytariqda, bir yarusda joylashtirildi. Tajribada variantlarida egatlar kengligi 90 sm va 114 sm, egat uzunligi 100 m. Har bir bo'lakchalar maydoni egat kengligi 90 sm bo'lgan variantlarda 720 m², shundan hisobga olinadigan maydon 360 m². Egat kengligi 114 sm bo'lgan variantlarda 912 m², shundan hisobga olinadigan maydon 456 m². Tajribalarning umumiy maydoni 4,2 gektarni tashkil etgan.

Andijon viloyatining och tusli bo'z tuproqlari sharoitida o'tkazilgan tajribada ikki xil ekish usullari (ochiq maydonga va plyonka ostiga), uch xil chigit ekish tizimi qo'llanildi. Bunda 1-2 -variantlarda chigitlar ochiq va plyonka ostiga 90x10-1 tizimida 111 ming tup/ga nazariy ko'chat qalinligida, 3-4 variantlarda chigitlar qo'shqator qilib ochiq maydonga, 5-6 variantlarda chigitlar pushtaga plyonka to'shab va 7-8 variantlarda chigitlar yoppasiga plyonka to'shab pushtaga qo'shqator qilib 90x(60x30)x12-1 va 90x(60x30)x15-1 tizimlarda 185-148 ming tup/ga nazariy ko'chat qalinligida, 9-10-11 variantlarda chigitlar ochiq maydonga qo'shqator usulda, 12-13-14 variantlarda chigit pushtaga plyonka to'shab qo'shqator usulda va 15-16-17 variantlarda chigit yoppasiga plyonka to'shab, pushtaga qo'shqator usulda (76x38)x8,8-1; (76x38)x9,7-1; (76x38)x11,4-1 tizimlarda 199-180-154 ming tup/ga nazariy ko'chat qalinligida chigit ekilgan.

Tajriba variantlarida g'o'zani oziqlantirishda, azotli o'g'itlardan ammiakli selitra (N-34%), fosforli o'g'itlardan superfos (P₂O₅-12-14%), kaliyli o'g'itlardan kaliy xlor tuzidan (K₂O-50%) foydalanilgan.


Tajribada variantlarga fosforli o'g'itlarning yillik me'yorini 70% va kaliyli o'g'itlarning 100% miqdori kuzda, shudgor ostiga, fosforli o'g'itlar qolgan 30% miqdori ekish bilan birga berilgan.

Azotli o'g'itning yillik me'yorlari ochiq maydonga hamda pushtaga plyonka to'shab ekilgan variantlarga shonalash davrida 50%, gullash davrida 50% miqdorida, yoppasiga plyonka to'shab ekilgan variantlarga ekish bilan birga 100% miqdorida qo'llanilgan.

Dissertatsiyaning «Chigitni turli usul va tizimlarda ekishni tuproqning agrofizik, suv-fizik va agrokimyoviy xossalriga ta'siri» deb nomlangan uchinchi bobida turli usul va tizimlarda chigit ekishni tuproqning hajm massasiga, g'ovakligiga, suv o'tkazuvchanligiga, fraksiyalar o'lchamiga, agregatlar miqdoriga,

agrokimyoviy xususiyatlariga, tuproq haroratining o'zgarishiga ta'siri bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Pushtaga plyonka to'shab, chigitlarni (76x38)x8,8-1 tizimda ekib parvarish qilinganida, amal davri oxiriga borib, tuproqning hajm massasini amal davri boshiga nisbatan tuproqni 0-30 sm qatlamida 0,113 g/sm³ ga, 30-50 sm qatlamida esa 0,120 g/sm³ ga oshganligi kuzatilgan bo'lsada, chigitlar ochiq maydonga 90x10-1 tizimda ekilgan variantga nisbatan 0-30 sm qatlamda 0,050 g/sm³ ga, 30-50 sm qatlamda 0,039 g/sm³ ga, chigitlar ochiq maydonga qo'shqator qilib 90x(60x30)x12-1 va 90x(60x30)x15-1 tizimlarda ekilgan variantga nisbatan 0-30 sm qatlamda 0,045-0,048 g/sm³ ga, 30-50 sm qatlamda 0,033-0,035 g/sm³ ga, chigitlar ochiq maydonga qo'shqator qilib (76x38)x8,8-1; (76x38)x9,7-1; (76x38)x11,4-1 tizimlarda ekilgan variantlarga nisbatan 0-30 sm qatlamda 0,038-0,034-0,042 g/sm³ ga, 30-50 sm qatlamda 0,027-0,025-0,030 g/sm³ ga hajm massani ortishi kam bo'lganligi aniqlangan.




1-rasm. Amal davri oxirida tuproqning hajm og'irligi, g/sm³

Pushtaga plyonka to'shab, chigitlar yakka qatorlab 90x10-1 tizimda ekilgan variantga nisbatan esa 0-30 sm qatlamda 0,029 g/sm³ ga, 30-50 sm qatlamda 0,022 g/sm³ ga, pushtaga plyonka to'shab, chigitlar qo'shqator qilib 90x(60x30)x12-1 va 90x(60x30)x15-1 tizimlarda ekilgan variantga nisbatan 0-30 sm qatlamda 0,021-0,025 g/sm³ ga, 30-50 sm qatlamda 0,018-0,020 g/sm³ ga, pushtaga plyonka to'shab, chigitlar qo'shqator qilib (76x38)x9,7-1 va (76x38)x11,4-1 tizimlarda ekilgan variantga nisbatan 0-30 sm qatlamda 0,006-0,009 g/sm³ ga, 30-50 sm qatlamda 0,005-0,008 g/sm³ ga zichlanish kam bo'lganligi kuzatilgan.

Pushtalarga yoppasiga plyonka to'shab, chigitlar qo'shqator qilib 90x(60x30)x12-1 va 90x(60x30)x15-1 tizimlarda ekilgan variantga nisbatan esa 0-30 sm qatlamda 0,013-0,017 g/sm³ ga, 30-50 sm qatlamda 0,012-0,014 g/sm³ ga, pushtalarga yoppasiga plyonka to'shab, chigitlar qo'shqator qilib (76x38)x11,4-1 tizimda ekilgan variantga nisbatan 0-30 sm qatlamda 0,002 g/sm³ ga, 30-50 sm

qatlamda 0,002 g/sm³ ga tuproq zichlanishi kam bo'lganligi kuzatilgan bo'lsada, ammo, pushtalarga yoppasiga plyonka to'shab, chigitlar qo'shqator qilib (76x38)x8,8-1; (76x38)x9,7-1; tizimlarda ekilgan variantlarga nisbatan tuproqning hajm massasi 0-30 va 30-50 sm qatlamlarda o'rtacha 0,008-0,003 g/sm³ ga yuqori bo'lganligi qayd etilgan.




2-rasm. Amal davri oxirida tuproqning g'ovakligi, %

Tuproqning g'ovakligi bo'yicha olingan ma'lumotlar tahlil qilinganida, pushtaga plyonka to'shab, chigitlarni (76x38)x8,8-1 tizimda ekib parvarish qilish amal davri oxiriga borib, tuproqning g'ovakligini amal davri boshiga nisbatan uch yilda o'rtacha tuproqning 0-30 sm qatlamida 4,157 foizga, 30-50 sm qatlamida esa 4,420 foizga kamayganligi aniqlangan bo'lsada, chigitlar ochiq maydonga 90x10-1 tizimda ekilgan variantga nisbatan 0-30 sm qatlamda 1,864 foizga, 30-50 sm qatlamda 1,469 ga, chigitlar ochiq maydonga qo'shqator qilib 90x(60x30)x12-1 va 90x(60x30)x15-1 tizimlarda ekilgan variantga nisbatan 0-30 sm qatlamda 1,679-1,765 foizga, 30-50 sm qatlamda 1,222-1,321 foizga, chigitlar ochiq maydonga qo'shqator qilib (76x38)x8,8-1; (76x38)x9,7-1; (76x38)x11,4-1 tizimlarda ekilgan variantlarga nisbatan 0-30 sm qatlamda 1,407-1,271-1,543 foizga, 30-50 sm qatlamda 1,024-0,938-1,111 foizga yuqori bo'lganligi aniqlangan.

Pushtaga plyonka to'shab, chigitlar yakka qatorlab 90x10-1 tizimda ekilgan variantga nisbatan esa 0-30 sm qatlamda 1,086 foizga, 30-50 sm qatlamda 0,815 foizga, pushtaga plyonka to'shab, chigitlar qo'shqator qilib 90x(60x30)x12-1 va 90x(60x30)x15-1 tizimlarda ekilgan variantga nisbatan 0-30 sm qatlamda 0,794-0,913 foizga, 30-50 sm qatlamda 0,667-0,753 foizga, pushtaga plyonka to'shab, chigitlar qo'shqator qilib (76x38)x9,7-1 va (76x38)x11,4-1 tizimlarda ekilgan variantga nisbatan 0-30 sm qatlamda 0,210-0,321 foizga, 30-50 sm qatlamda 0,185-0,296 foizga, pushtalarga yoppasiga plyonka to'shab, chigitlar qo'shqator qilib 90x(60x30)x12-1 va 90x(60x30)x15-1 tizimlarda ekilgan variantlarga nisbatan 0-30

sm qatlamda 0,469-0,617 foizga, 30-50 sm qatlamda 0,444-0,543 foizga, pushtalarga yoppasiga plyonka to'shab, chigitlar qo'shqator qilib (76x38)x11,4-1 tizimda ekilgan variantga nisbatan esa 0-30 sm qatlamda 0,086 ga, 30-50 sm qatlamda 0,098 foizga yuqori ekanligi qayd etilgan bo'lsada, ammo, pushtalarga yoppasiga plyonka to'shab, chigitlar qo'shqator qilib (76x38)x8,8-1; (76x38)x9,7-1; tizimlarda ekilgan variantlarga nisbatan tuproqning g'ovakligi 0-30 sm qatlamda 0,284-0,124 foizga, 30-50 sm qatlamda 0,272-0,111 foizga kam bo'lganligi kuzatilgan.



3-rasm. Amal davri oxirida tuproqning suv o'tkazuvchanligi, m³/ga

Chigitlarni ekish usullari va tizimlari kesimida tuproqning suv o'tkazuvchanlik qobiliyati tahlil qilinganida, pushtaga plyonka to'shab, chigitlarni (76x38)x8,8-1 tizimda ekib parvarish qilingan variantda amal davri oxiriga borib, tuproqning suv o'tkazuvchanligi amal davri boshiga nisbatan uch yilda o'rtacha 65,7 m³/ga kamayganligi aniqlangan bo'lsada, chigitlar ochiq maydonga 90x10-1 tizimda ekilgan variantga nisbatan 54,9 m³/ga, chigitlar ochiq maydonga qo'shqator qilib 90x(60x30)x12-1 va 90x(60x30)x15-1 tizimlarda ekilgan variantlarga nisbatan 48,0-51,8 m³/ga, chigitlar ochiq maydonga qo'shqator qilib (76x38)x8,8-1; (76x38)x9,7-1; (76x38)x11,4-1 tizimlarda ekilgan variantlarga nisbatan 39,8-35,6-43,7 m³/ga, pushtaga plyonka to'shab, chigitlar yakka qatorlab 90x10-1 tizimda ekilgan variantga nisbatan 32,0 m³/ga, pushtaga plyonka to'shab, chigitlar qo'shqator qilib 90x(60x30)x12-1 va 90x(60x30)x15-1 tizimlarda ekilgan variantga nisbatan 24,2-28,6 m³/ga, pushtaga plyonka to'shab, chigitlar qo'shqator qilib (76x38)x9,7-1 va (76x38)x11,4-1 tizimlarda ekilgan variantlarga nisbatan 7,8-11,8 m³/ga, pushtalarga yoppasiga plyonka to'shab, chigitlar qo'shqator qilib 90x(60x30)x12-1 va 90x(60x30)x15-1 tizimlarda ekilgan variantlarga nisbatan 16,1-20,1 m³/ga, pushtalarga yoppasiga plyonka to'shab, chigitlar qo'shqator qilib (76x38)x11,4-1 tizimda ekilgan variantga nisbatan 3,9 m³/ga suv tuproqqa ko'p singanligi ma'lum bo'lgan bo'lsada, ammo, pushtalarga yoppasiga plyonka to'shab, chigitlar qo'shqator

qilib (76x38)x8,8-1; (76x38)x9,7-1; tizimlarda ekilgan variantlarga nisbatan 9,6-4,6 m³/ga gacha tuproqning suv singdirish xususiyati kamayib borganligi qayd etilgan.

Dissertatsiyaning «**Chigit ekish usullari va tizimlarini g'ozaning o'sishi, rivojlanishi va paxta hosiliga ta'siri**» deb nomlangan to'rtinchi bobida chigitni ekish usullari va tizimlarini nihollarning unib chiqish dinamikasiga va ko'chat qalinligiga, o'suv davrida sug'orish muddatlari va me'yorlariga, g'ozaga o'simligining o'sib rivojlanishiga va hosil elementlarini shakllanishiga, paxta hosildorigiga, tolaning texnologik sifat ko'rsatkichlariga, ta'siri bo'yicha ma'lumotlar bayon qilingan.

Tajriba variantlarida ekish usullari va tizimlariga bog'liq holda ko'chat qalinliklari bo'yicha olingan natijalarning ko'rsatishicha, pushtaga plyonka to'shab, chigitlar 90x10-1 tizimda ekilgan variantda, chigitlar ushbu tizimda ochiq maydonga ekilgan variantga nisbatan ko'chatlarning unib chiqishi 1,7 ming tup/ga, amal davri oxirida xaqiqiy ko'chat qalinligi 3,5 ming tup/ga, pushtaga plyonka to'shab, chigitlar 90x(60x30)x12-1 va 90x(60x30)x15-1 tizimlarda ekilgan variantlarda, chigitlar ushbu tizimlarda ochiq maydonga ekilgan variantlarga nisbatan ko'chatlarning unib chiqishi 1,8-2,3 ming tup/ga, amal davri oxirida xaqiqiy ko'chat qalinligi 5,3-4,5 ming tup/ga, pushtalarga yoppasiga plyonka to'shab, chigitlar 90x(60x30)x12-1 va 90x(60x30)x15-1 tizimlarda ekilgan variantlarda esa ushbu tizimda chigitlar ochiq maydonga ekilgan variantlarga nisbatan ko'chatlarning unib chiqishi 2,9-3,1 ming tup/ga, amal davri oxirida xaqiqiy ko'chat qalinligi 7,4-6,2 ming tup/ga gacha yuqori natijalar olingan.

Pushtaga plyonka to'shab, chigitlar (76x38)x8,8-1; (76x38)x9,7-1; (76x38)x11,4-1 tizimlarda ekilgan variantlarda ushbu tizimlarda chigitlar ochiq maydonga ekilgan variantlarga nisbatan ko'chatlarning unib chiqishi 3,2-3,1-2,3 ming tup/ga gacha, amal davri oxirida xaqiqiy ko'chat qalinligi 6,4-5,7-4,6 ming tup/ga gacha yuqori natija ko'rsatganligi aniqlangan bo'lsa, pushtalarga yoppasiga plyonka to'shab, chigitlar (76x38)x8,8-1; (76x38)x9,7-1; (76x38)x11,4-1 tizimlarda ekilgan variantlarda ushbu tizimda chigitlar ochiq maydonga ekilgan variantlarga nisbatan ko'chatlarning unib chiqishi 4,2-4,0-3,5 ming tup/ga gacha, amal davri oxirida xaqiqiy ko'chat qalinligi 8,7-7,5-6,9 ming tup/ga gacha yuqori natija olinganligi qayd etilgan.

Chigitlarni ekish usullariga bog'liq holda mavsumiy sug'orish me'yorlariga bo'lgan talabi aniqlab borilganida, chigitlar ochiq maydonga ekilgan variantlarda mavsumiy sug'orishga bo'lgan talabi yillar kesimida 4550-4440-4740 m³/ga ni tashkil etgan bo'lsa, chigitlar pushtaga plyonka to'shab ekilgan variantlarda mavsumiy sug'orish me'yorlari mos ravishda 3580-3480-3730 m³/ga, chigitlar pushtalarga yoppasiga plyonka to'shab ekilgan variantlarda mavsumiy sug'orish me'yorlari yillar kesimida 3470-3360-3560 m³/ga ni tashkil etib, ochiq maydonga chigit ekilgan variantlarga nisbatan pushtaga plyonka to'shab chigit ekilgan variantlarda mavsumiy suv sarfiga bo'lgan talabi 970-960-1010 m³/ga, pushtalarga yoppasiga plyonka to'shab chigit ekilgan variantlarda esa mavsumiy suv sarfiga bo'lgan talabi 1080-1080-1180 m³/ga gacha kamayganligi aniqlangan.

Olib borgan tadqiqotlarimizda tajriba variantlarida qo'llanilgan agrotexnik tadbirlarni g'ozaning o'sishi va rivojlanishiga ta'sirini aniqlanganida, chigit ekish usullarining ta'siri sezilarli bo'lganligi aniqlandi. Jumladan, avgust oyining 1-2

kuniga kelib, pushtaga plyonka to'shab, chigitlar 90x10-1 tizimda ekilgan variantda ushbu tizimda chigitlar ochiq maydonga ekilgan variantga nisbatan bir tup o'simlikda o'rtacha bosh poya balandligi 6,1 sm, hosil shoxlari soni 3,4 donaga, hosil elementlari soni 13,6 donaga, ko'saklar soni 2,3 donaga yuqori bo'lganligi kuzatilgan bo'lsa, pushtaga plyonka to'shab, chigitlar 90x(60x30)x12-1 va 90x(60x30)x15-1 tizimlarda ekilgan variantlarda, ushbu tizimda chigitlar ochiq maydonga ekilgan variantlarga nisbatan bosh poya balandligi 14,3-7,3 sm, hosil shoxlari soni 3,4-3,5 donaga, hosil elementlari soni 12,8-13,4 donaga, ko'saklar soni 2,9-2,1 donaga, chigitlar ushbu tizimlarda pushtalarga yoppasiga plyonka to'shab ekilgan variantlarda esa bosh poya balandligi 23,8-22,0 sm, hosil shoxlari soni 2,4-2,3 donaga, hosil elementlari soni 10,5-10,7 donaga, ko'saklar soni 1,1-1,3 donaga yuqori natija ko'rsatganligi qayd etilgan.

Pushtaga plyonka to'shab, chigitlar (76x38)x8,8-1; (76x38)x9,7-1; (76x38)x11,4-1 tizimlarda ekilgan variantlar tahlil qilinganida, ushbu tizimda chigitlar ochiq maydonga ekilgan variantlarga nisbatan bosh poya balandligi 16,5-16,6-12,4 sm, hosil shoxlari soni 3,5-3,5-3,7 donaga, hosil elementlari soni 13,6-13,7-14,1 donaga, ko'saklar soni 1,6-1,7-1,9 donaga, chigitlar ushbu tizimlarda pushtalarga yoppasiga plyonka to'shab ekilgan variantlarda esa ochiq maydonga chigit ekilgan variantlarga nisbatan bosh poya balandligi 24,9-24,5-24,1 sm, hosil shoxlari soni 2,0-2,1-2,2 donaga, hosil elementlari soni 9,7-10,4-10,4 donaga, ko'saklar soni 1,6-1,6-1,5 donaga yuqori bo'lganligi aniqlangan.

